

Tuproq unumdorligi va yuqori hosildorlik uchun yangi preparat

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya instituti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan "Azos-Uz" biopreparati atmosferadan molekulyar azotni o'zlashtiruvchi, faol fitogormonlar hosil qiluvchi Azospirillum avlodiga mansub bo'lgan bakteriyalar assotsiatsiyasi asosida yaratilgan.



Azotfiksatorlar asosida yaratilgan ushbu biologik preparat qishloq xo'jaligi o'simliklarining hosildorligini va sho'rangan sharoitda tuproqlarning unumdorligini oshirishga, o'simliklarni kasalliklarga chidamliligini kuchaytirishga yordam beradi. Biopreparat qiyin eruvchan fosfatlarni mineralizatsiyalash, bir qator V vitaminlar va o'simliklar rivojlanishini kuchaytiruvchi fitogormonlarni sintez qilish xususiyatiga egadir.

Qishloq xo'jaligi ekinlariga ushbu biopreparat bilan ishlov berish natijasida hosildorlik 5-10 s/ga oshadi, kimyoviy azotli o'g'itlarga bo'lgan talab 50% ga kamayib ekologik toza mahsulot yetishtiriladi.